

Date: 29th October-2025

**BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA MA'NAVIY TARBIYANING
ZAMONAVIY YONDASHUVLARI**

Mamatkulova Mehrangez Djamshedovna

Magistr, Samarqand pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim jarayonida ma'naviy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari va usullariga bag'ishlangan. Tadqiqotda interfaol metodlar, raqamli ta'lim texnologiyalari va loyiha asosidagi o'qitish kabi zamonaviy pedagogik usullarning ma'naviy tarbiyaning samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, bolalarning ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish, maktab, oila va mahalla hamkorligi ning o'rnini hamda barkamol shaxsni tarbiyalashda zamonaviy tendensiyalardan foydalanishning nazariy asoslari o'rganilgan. Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviy qadriyatlarni singdirishda zamonaviy yondashuvlarning samarali jihatlari aniqlangan va ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy yondashuvlar, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, barkamol shaxs, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik usullar.

Kirish. Zamonaviy davrda boshlang'ich ta'lim nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy bosqichidir. Ma'naviy tarbiya – bu yosh avlodning dunyoqarashi, qalbiy-falsafiy tafakkuri, ma'naviy-madaniy qadriyatlar asosida shakllantiriladigan muhim tarkibiy qismidir. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limda ma'naviy tarbiyani tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari dolzarblik kasb etmoqda.

1. Ma'naviy tarbiyaning zamonaviy vazifalari:

- Milliy va universal qadriyatlarni uyg'unlashtirish.
- Maktab, oila va mahalla hamkorligini mustahkamlash.
- Yosh avlodda ma'naviyat, ma'rifat va fidoyilik fazilatlarini shakllantirish.
- Turli xalqlar madaniyati va an'alariga hurmat bilan qarash ruhini tarbiyalash.

2. Zamonaviy yondashuvlar va metodlari:

· Interfaol metodlardan foydalanish: Darslarda muammoli vaziyatlar, loyihalar, debatlar, o'yin texnologiyalari, "dumaloq stol" muhokamalari orqali ma'naviy qadriyatlarni muhokama qilish.

· Raqamli texnologiyalarni qo'llash: Ma'naviy tarbiyaga oid multimedia dasturlari, virtual ekskursiyalar, ta'limiy filmlar va interfaol darsliklardan samarali foydalanish.

· O'quv dasturlariga integratsiya: Ma'naviy tarbiya elementlarini barcha fanlar (ona tili, tabiatshunoslik, adabiyot, san'at) darslariga uzviy singdirish.



Date: 29th October-2025

· Amaliy faoliyatga yo'naltirilganlik: Tarixiy yodgorliklar, mahalla va jamoat maskazlari, muzey va kutubxonalarga tashriflar, xayriya aksiyalari, atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalari kabi amaliy tadbirlarni tashkil etish.

· Ijtimoiy loyihalar: O'quvchilarning o'ziga xos ijodiy va jamoaviy loyihalarni amalga oshirishlari orqali jamoada ishlash ko'nikmalari va mas'uliyat hissini rivojlantirish.

Xulosa. Boshlang'ich ta'limda ma'naviy tarbiyani samarli tashkil etish uchun an'anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol yondashuvlardan keng foydalanish talab etiladi. Bunda asosiy vazifa – o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktab, oila va mahallaning uzviy hamkorligi esa ushbu jarayon muvaffaqiyatining asosiy kafolatidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Intereuroconf.com/index.php/MSRTIAI/issue/view/11
2. Conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1949
3. Global-science-review.com/ojs/index.php/gsr/issue/view/18.006.2025
4. Interoncof.com/index.php/nether/issue/view/44
5. Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: «O'zbekiston», 2009, 15-bet.
6. Scientific-jl.org/ped/issue/view/180

